

**“Maxam-Chirchiq” AJda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish bo‘yicha
2026-yil uchun yillik taqvim rejaning II chorak ijrosi bo‘yicha
MA’LUMOT**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
1.	9-aprel – Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan “Biz kim, Mulki Turon!” shiori ostida xodimlar o‘rtasida turli xil sport musobaqalari, tanlovlar va marafonlar tashkil etish hamda intellektual o‘yinlar o‘tkazish.	Aprel	BAJARILDI: 1. “9-aprel – buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi” munosabati bilan korxona MEUT sexida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. 2. “28-aprel Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni” munosabati bilan korxonada “Eng iqtidorli jamoatchilik vakili” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi.
2.	“Sog‘lom ma’naviy muhit – jamoa boyligi” mavzusida jamoaviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlar asosida trening o‘tkazish.	Aprel	BAJARILDI: “Yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish” mavzusida joriy yilning 23-aprel kuni targ‘ibot tadbiri bo‘lib o‘tdi. Unda Transport bo‘limi boshlig‘i-A.Abdullayev va YHX muhandisi-U.Promkulov yoshlarga kerakli ko‘rsatma va tavsiyalarni berishdi.
3.	9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Xotira, ehtirom va g‘amxo‘rlik” loyihasi doirasida keksalar, nuroniylar, urush va mehnat faxriylari, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan xayriya tadbirlarini tashkil etish. Xodimlar ishtirokida “Millat fidoyilari” xiyoboniga tashrif buyurish orqali vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini mustahkamlashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazish.	May	BAJARILDI: “9-may - Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan boshqaruvi raisi D.Mannonov boshchiligida korxona ma’muriyati, ishchi-xodimlar, mehnat faxriylari ishtirokida korxonaning “Xotira” yodgorlik majmuasi poyiga gul qo‘yilib, Vatan uchun jon fido qilgan yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bildirildi.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
4.	15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan “Ma’naviyat oiladan boshlanadi” loyihasi doirasida oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, o‘zaro ishonch, hurmat va mas’uliyatni oshirishga qaratilgan ma’naviy-psixologik trening o‘tkazish.	May	BAJARILDI: 15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan ayollar o‘rtasida shashka musobaqasi tashkil etildi.
5.	“Yoshlar oyli” doirasida korxonada faoliyat olib borayotgan xodimlarning farzandlari uchun “Ochiq eshiklar kuni” ni tashkil qilish. Turli musobaqalar o‘tkazish hamda “Farzandlarimizga kitob sovg‘a qilaylik!” nomli kitob yarmarkasini hamda xayriya tadbirlarini tashkil etish.	Iyun	BAJARILDI: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-148-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zkimyosanoat” AJ tizimi xodimlari o‘rtasida “Yilning eng faol yosh xodimi” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi o‘tkazildi. Mazkur tanlov yosh xodimlarning kasbiy mahorati, intellektual salohiyati, ijodiy tashabbuskorligi va liderlik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni vatanparvarlik hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, shuningdek, tizimdagi eng munosib va fidoyi yosh mutaxassislarni aniqlash maqsadida tashkil etildi.
6.	“Ma’rifatli yoshlar – millat faxri” loyihasi doirasida korxonada faoliyat olib borayotgan yoshlar o‘rtasida intellektual musobaqalar o‘tkazish.	Iyun	BAJARILDI: O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan korxona yoshlari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy tarbiyaga qiziqishlarini oshirish maqsadida mini-futbol sport turi bo‘yicha “Boshqaruv raisi kubogi” musobaqasi bo‘lib o‘tdi.
7.	Xodimlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida “Sog‘ tanda – sog‘lom fikr” shiori ostida (15-20 daqiqa) jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish.	Haftada 2 marta	BAJARILMOQDA: Korxona ishchi-xodimlari orasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish hamda turli xil kasb kasalliklarini oldini olish maqsadida muntazam ravishda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkazilib borilmoqda.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
8.	“Ma’rifat soati”ni o‘tkazish. Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan haftaning har juma kunida eng muhim va dolzarb mavzular haqida ma’lumot berib boruvchi “Siyosiy-ma’rifat soati”ni xodimlar orasida muhokama qilish.	Har hafta	BAJARILMOQDA: Korxonada ma’naviyat soatlarinin tashkil qilish bo‘yicha “Ma’naviyat soati jadvali” ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Tasdiqlangan jadval asosida har haftaning chorshanba va juma kunlari ma’naviyat soati tashkil qilinadi.
9.	Xodimlar o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yini tashkil etish. 1.“Birinchi va ikkinchi renessans – buyuk daholar davri”. 2.“Millat oydinlari” (jadid mutafakkirlari faoliyatini o‘rganish maqsadida). 3.“Kitob – ma’naviyat ko‘zgusi” (kitobxonlikni targ‘ib qilish maqsadida) mavzularida.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: Kimyo sanoati yosh mutaxassislari forumi ishtirokchilari o‘rtasida “Zakovat” intellektual turnirining “O‘zkiyosanoat kubogi” tashkil etildi. Yakuniy natijalarga ko‘ra: 1-o‘rin va “O‘zkiyosanoat kubogi” sohibi — Toshkent kimyo-texnologiya institutining “Astrofel” jamoasi; 2-o‘rin — Maxam-Chirchiq AJning “Born to Win” jamoasi; 3-o‘rin — Yangi O‘zbekiston universitetining “Yangi O‘zbekiston” jamoasi.
10.	Xodimlarning dunyoqarashini kengaytirish, odob-axloq me’yorlariga rioya etish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida ma’naviy-ma’rifiy treninglar, seminarlar hamda interfaol mashg‘ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish.	Har chorakda	BAJARILMOQDA: 1. Joriy yilning 1-aprel kuni mehnat muhofazasi haftaligi doirasida ishlab chiqarish, sex, bo‘lim boshliqlari va bosh mutaxassislar ishtirokida baxtsiz hodisalarning odini olish maqsadida seminar o‘tkazildi. 2. 17-aprel kuni “Kimyogarlar” madaniyat saroyida korxona xotin-qizlari o‘rtasida “Jahon raqslari jilosi” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Tanlov ishtirokchilari turli millatlar raqslarini mahorat bilan ijro etishdi. 3. “Maxam-Chirchiq” AJning 85 yillik yubileyi hamda Kimyogarlar kuni munosabati bilan bugun “Kimyogar” tantanalar saroyida bayram tadbiri tashkil etildi. Tadbir davomida korxonamiz kimyogarlarini “O‘zkiyosanoat” AJ

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
			boshqaruvi raisi Odil Temirov, Toshkent viloyati hokimi o'rinbosari Shukurulla Maxmudov, Chirchiq shahar hokimi Murodjon Abduraximov hamda tarmoq korxona rahbarlari samimiy muborakbod etishdi. 4. Joriy yilning 5-iyun kuni "Maxam-Chirchiq" AJda "Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni" munosabati bilan seminar tashkil etildi. 5. "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari forumi"i davomida ishtirokchilarga o'z g'oyalarini real loyihaga aylantirishga ko'maklashish maqsadida "Sun'iy intellekt yordamida startap yaratish san'ati" mavzusida seminar tashkil etildi.
11.	"Yurtim tarixini o'rganaman" shiori ostida xodimlar ishtirokida tarixiy obidalarga sayohatlar tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: 1. Amir Temur oyligi davomida korxonaning 50 nafar ishchi-xodimlariga tarixiy Samarqand shahriga sayohat tahkil etildi. 2. Joriy yilning 2-3-aprel kunlari 20 nafar ayol xodimlar uchun Zomin tumaniga sayohat tashkil etildi. 3. 8-aprel kuni Amir Temur oyligi davomida 50 nafar ishchi-xodimlar uchun Toshkent shahriga sayohat tashkil etildi. 4. 11-12-aprel kunlari 50 nafar ishchi-xodimlar uchun Buxoro shahri bo'ylab sayohat tashkil etildi. 5. 2-3-may kunlari 50 nafar ishchi-xodimlariga tarixiy Samarqand shahriga sayohat tahkil etildi.
12.	Korxonadagi ma'naviy va ma'rifiy ishlarga mas'ul xodimlarning bilim va malakalarini oshirish hamda ularning faoliyatini takomillashtirish maqsadida Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda o'quv kurslarini tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: 1. Korxonada ish hujjatlarini davlat tilida yuritish holati alohida e'tibor markazida. Shu bois 9-aprel kuni yillik rejaga asosan korxona favqulodda vaziyatlar bo'limida davlat tili to'g'risidagi hujjatlar ijrosini o'rganish ishlari o'tkazildi.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
13.	Korxonada amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni korxona rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalarida va elektron ommaviy axborot vositalarida yoritish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: “Maxam-Chirchiq” AJda ishlab chiqarish jarayoni, korxona faoliyati haqida ma'lumot berish maqsadida 40 daqiqalik maxsus reportaj tayyorlandi va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirildi.
14.	Korxonada sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida sport tadbirlarini tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: 1. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi hamda O'zbekiston korporativ sport assotsiatsiyasi tomonidan tashkilot va idora xodimlari ishtirokida tashkil etilgan stol tennisi bo'yicha Assotsiatsiya kubogida 100 dan ortiq ishtirokchilar orasidan "Maxam-Chirchiq" AJning Sintez sexi mashinisti - Ablayxan Kudaykulov munosib ishtirok etib, faxrli 3-o'rinni egalladi. 2. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Maxam-Chirchiq” AJning ayol ishchi-xodimlari o'rtasida 22-may kuni stol tennis bo'yicha musobaqa tashkil etildi. 3. Joriy yilning 23-24-may kunlari Toshkent shahrida Armrestling bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib, o'tdi. Unda 100 dan ortiq sportchilar ishtirok etdi. Yakunda jamiyatimizning karbamid sexi mashinisti A.Tadjiyev + 110 kg vazn toifasida 1-o'rin sohibiga aylandi. 4. Futzal bo'yicha O'zbekiston chempionatining 2025/2026-yilgi mavsumi sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Milliy chempionatning yakuniy natijasiga ko'ra "Maxam-Chirchiq" AJ jamoasi mavsumning eng intizomli jamoasi sifatida “Halol o'yin” – “Fair play” sovrinini hamda jamoa bosh murabbiyi Bahodir Ahmedov “Eng yaxshi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
			murabbiy” so‘vrinini qo‘lga kiritdi.
15.	Korxona ishchi-xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida kasbga doir ko‘rik-tanlovlarni tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: 1. Ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy innovatsion va raqamli yechimlarni keng joriy etish, yosh mutaxassislar, muhandislar hamda dasturchilarning ilmiy-texnikaviy salohiyatini rivojlantirish, sun’iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida korxonada “Open ChemAI Challenge” xakatonining birinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi. 2. Korxona yosh mutaxassislari orasida “Yilning eng faol yosh xodimi” tanlovi o‘tkazildi. Unda jamiyat yoshlari o‘zlarining taklif va loyihalari bilan ishtirok etishdi. “Mening g‘oyam” mavzusidagi taqdimotlarda taklif etilayotgan mavzuning dolzarbligi, amalga oshirish yo‘llari, kutilayotgan natija haqida batafsil ma’lumot berildi. 3. “O‘z kimyosanoat” AJ tizimi xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Yilning eng faol yosh xodimi” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi yakunlari bo‘yicha g‘olib va sovrindorlar aniqlandi. Tanlov natijalariga ko‘ra: 1-o‘rin - Otabek Tursunboyev - “Maxam-Chirchiq” AJ yosh xodimi; 2-o‘rin - Farxod Erkinov - “Navoiyazot” AJ yosh xodimi; 3-o‘rin - Behruz Xayrilloyev - “Navoiyazot” AJ yosh xodimi.

Boshqaruv raisining maslahatchisi



I.S. Kurbanaliyev